

**BO‘LAJAK TIBBIYOT XODIMLARIDA MANTIQUIY
TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH – KASBIY PEDAGOGIK
ZARURIYAT SIFATIDA
РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ
МЕДИЦИНСКИХ КАДРОВ – КАК ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ
ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПОТРЕБНОСТЬ
DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN FUTURE MEDICAL
STAFF – AS A PROFESSIONAL PEDAGOGICAL NEED**

Zikiryayeva Manzura Mavlonovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Аннотация. Ushbu maqolada bo'lajak shifokorlarning mantiqiy va ijodiy fikrlash va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi ko'rib chiqiladi va bu jarayonda pedagogikaning imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muallif pedagogik darsning bir qismini taqdim etadi. Bu professional vaziyatlarda matnlar bilan ishlashda bo'lajak shifokorning mantiqiy va ijodiy fikrlash kooperativlarning kichik guruhida qanday va qanday rivojlanishini aniq ko'rsatib beradi.

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема развития логико-творческого мышления и ментальных сил будущих врачей и анализируются возможности педагогики в этом процессе. Автор представляет фрагмент педагогического занятия. Там хорошо видно, как развиваются логическое и творческое мышление будущего врача в небольшой группе кооперативов при работе с текстами в профессиональных ситуациях.

Annotation. This article discusses the problem of developing logical and creative thinking and mental powers of future doctors and analyzes the possibilities of pedagogy in this process. The author presents a fragment of a pedagogical lesson. It clearly shows how and how the logical and creative thinking of the future doctor

develops in a small group of cooperatives when working with texts in professional situations.

Kalit so'zlar: *kelajakdagi shifokor, pedagogika, mantiqiy va ijodiy fikrlash, aqliy kuchlarni rivojlantirish, hamkorlikning kichik guruhi, matn bilan ishlash, kasbiy vaziyat.*

Ключевые слова: *будущий врач, педагогика, логико-творческое мышление, развитие умственных сил, малая группа сотрудничества, работа с текстом, профессиональная ситуация.*

Keywords: *future doctor, pedagogy, logical and creative thinking, development of mental powers, small group of cooperation, work with text, professional situation.*

Mustaqil shaxs insonparvar, demokratik jamiyatda mavjud bo'lgan ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omillarning ta'siri natijasida qaror topadi. Mustaqil shaxsning shakllanishida ob'ektiv shart-sharoitlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lsa-da, sub'ektiv omillar: oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalari, mahallalar, siyosiy partiyalar, madaniy-ma'rifiy uyushmalar va boshqa jamoat tashkilotlarining hamkorlikda, yagona dasturga asoslangan tarbiyaviy-mafkuraviy ishlarining ta'siri beqiyosdir.

Mustaqil shaxs uch asosiy komponentni: mustaqil fikrlashni, mustaqil ishlashni va mustaqil yashashni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu komponentlar mustahkam hamkorlikda faoliyat ko'rsatib, shubhasiz, biri ikkinchisiga ta'sir o'tkazib turadi. Lekin shaxs mustaqilligi, eng avvalo, uning fikr-mulohaza yuritish kobilyatiga bog'liq bo'ladi. Xuddi shu qobiliyat tufayli inson o'zi ko'rgan, bilgan, eshitgan, atrofida sodir bo'layotgan hodisalar, voqealar, jarayonlarning mohiyatini, ularning to'g'ri yoki noto'g'ri, chin yoki yolg'onligini aniqlaydi. Aniqroq qilib aytganimizda, inson xuddi shu qobiliyat tufayli kundalik turmushida vujudga kelgan muammolar

yechimini topadi.

Insonning fikrlash qobiliyati uning fahm-farosati, aql-zakovati, zehniga bog'liq bo'ladi. Xuddi shuning uchun ham fikrlash o'zgarib turuvchi jarayon bo'lib, o'zining rivojlanishi davomida ikki yirik bosqichni bosib o'tadi. Fikrlash jarayonining pastki, quyi bosqichi fahm-farosatdir. Fahm-farosat fikrlash qobiliyatining asosini tashkil etadi. Fikrlash jarayonining yuqori bosqichi aqlidir. Fahm-farosat his-tuyg'ularga asoslansa, aql ko'proq bilimga, ilmga tayanadi. Shuning uchun ham, tiniq, ravon fikrlaydigan kishilarni xalqimiz aqlli odamlar, deb ataydi.

Insonning fikrlash qobiliyati uning bilimi, intellektual salohiyati bilan dialektik aloqador. Fikrlash – doimo harakatda bo'lgan jarayon bo'lsa, aql uning hosilasidir. Aql yordamida inson hamisha eng og'ir vaziyatdan chiqish uchun o'ziga to'g'ri yo'l topadi. Eng qiyin muammolarni bartaraf etadi.

Inson aqlining samaradorligi uning nafaqat bilimdonligiga, balki o'sha bilimlarining aniq maqsadga qaratilganligiga, yo'naltirilganligiga bog'liq bo'ladi. Aqlli kishi nafaqat ko'p bilimga ega ekanligi, balki o'sha bilimlarni ezgulik, yaxshilik uchun safarbar qilishi bilan ajralib turadi. O'z bilimlarini boshqalarning farovon turmushi uchun sarflagan aql sohibi chinakam donishmand darajasiga ko'tariladi.

Haqiqiy donishmand o'z tashvishi bilan emas, o'zgalar dardi bilan yashaydi. Ana shu manfaat qarichi bilan o'z atrofiga, boshqalarga razm soladi. Donishmandlikning ma'nosi va mazmuni, uning maqsadi – haqiqatni qaror toptirishga, ezgulikka qaratilganligidir. Donishmandlik bilimsiz, ilmsiz sodir bo'lishi aslo mumkin emas. Lekin bilim, ilm – donishmandlik ham emas. Har qanday bilimdon, ilmli kishi donishmand bo'lavermaydi. Donishmandlik insonning nafaqat fikrlash jarayonini, balki barcha xayrli, yaxshilikka, ezgulikka qaratilgan barcha ishlarini tartibga soladi, unga izchillik ato etadi va ichki asos beradi. Chunki donishmandlik nafaqat nodir iste'dod, teran bilim, o'tkir zehnlilik, balki yuksak axloqiylikdir. Aniqroq qilib aytganimizda, donishmandlik – aqliylik va axloqiylik qo'shiluvining eng baland nuqtasidir.

Hozirgi zamon insonshunos olimlari insonning fikrlash qobiliyatini biri ikkinchisi bilan bog'liq bo'lgan ikki: amaliy va nazariy darajalarga bo'ladilar. Amaliy va nazariy darajalar o'zaro aloqadorligining mustahkamligi fikrlash tarzida yaqqol namoyon bo'ladi. Insonning fikrlash tarzi: ochiq (o'z fikr-mulohazalarini ro'y-rost, oshkora bayon qilish), ustakorlik (o'z nuqtai nazarini birdan bayon qilmaslik, boshqalarning fikr-mulohazalarini kutib turish), hushyor (har qanday vaziyatda ham o'z fikrining yaxshi-yomon tomonlarini ziyraklik bilan tahlil qila bilish, ming marta o'ylab, keyin so'ylash), ijodiy (o'z qarashlarini bayon qilishda no'anaviy, nostandart mulohazalarga asoslanish), dogmativ (bir qolipda, bir xil andozada fikr yuritish, mushohada qilayotgan muammosining bir tomonini bo'rttirib ko'rsatish), avtoritar (obro'-e'tiborga, mansabdorning qosh-qovog'iga qarab fikrlash) kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Fikrlash tarzidagi ro'y-rostlik, oshkoralik doimo o'zgarib turadi. Oshkora fikrlovchi kishi muammolar yechimi uchun tayyor formula yoki bir xil qolip qidirmaydi. O'zi o'ylab topgan yechimini boshqalarga ro'y-rost bayon qiladi, ularni ishontirishga harakat qiladi. Fikrlash tarzida hushyorlik, ustakorlik qilgan kishilarda esa atrofida sodir bo'lgan o'zgarishlarni mohirlik bilan har tomonlama tahlil qilish malakasi kuchli bo'ladi. Bunday kishilar o'zlarining tajribalari asosida hosil qilingan hukm yoki xulosalarini sekinlik bilan o'zgartiradilar. Boshqacha aytganimizda, bunday kishilarning fikrlash tarzi bir vaqtlar shakllangan stereotiplarga sadoqati bilan boshqalarning fikrlash tarzidan ajralib turadi.

Ijodiy fikrlash tarzi esa kundalik turmushda vujudga kelgan muammolarning yechimlarini izlab topishni taqozo etadi. Buning uchun esa muammolar yechimlarining informatsion modeli bilan insonning amaliy faoliyati, ya'ni ijodkorning xatti-harakati orasidagi farqni ajrata bilish darkor. Sovet hokimiyati yillarida xuddi shu holatga, ya'ni ijodkorning ijodiy fikrlash tarzi bilan uning kundalik xatti-harakati orasidagi nomutanosiblik to'g'ri baholanmadi.

Bunday nomutanosiblikning rivojlanib ketishi ta'lim muassasalarining ishi bilan bog'liq ekanligi hech kimga sir emas. Avvaliga ota-onalarning, so'ngra esa o'qituvchilarning bir qolipdagi ko'rsatmalari bolalarning erkin, mustaqil fikr

yuritishiga yo'l bermas edi. Tayyor bilimlarni talabaga yetkazishga va uni o'zlashtirishga mo'ljallangan dogmativ ta'lim uslubi faqat bitta javobga, bitta yechimning to'g'riligiga asoslangan edi. Qolgan yechimlar, boshqa javoblar noto'g'ri, deb hisoblanar edi.

Xuddi shu asnoda talabalarda olam va odam to'g'risida bir qolipdagi tasavvur hosil qilindi. Bunday biryoqlamalik boshqacha fikrlashga shart-sharoit yaratmadi. Natijada avvalgi ta'lim tizimida tahsil olgan kishi darsliklarda, o'quv qo'llanmalarida bayon qilingan ma'lumotlardan bo'lak xabarlardan bebahra qoldilar. O'zgacha fikr yuritgan talaba yoki talaba, o'qituvchi yoki domla turli siyosiy bo'yoqlar yordamida qoralanib tashlandi. Ularga siyosiy yorliqlar osildi.

Yuqoridan berilgan darsliklarda, qo'llanmalarda bitilgan ko'rgazmalar, tavsiyalar asosida fikr yuritgan minglab yoshlar «yomon» yoki «yaxshi», ijobiy yoki salbiy deb fikrlashga odatlanib qolishdi. Bunday fikrlash tarziga asoslanib faoliyat ko'rsatgan kishi, shubhasiz, kalondimog'lik qildi, boshqalarning fikriga quloq osmadi, eshitishni ham xohlamadi.

Insonning fikrlash tarzi bir qator omillarga, chunonchi tug'ma intellektual qobiliyatlarga, bolalikda olgan ta'lim va tarbiyasiga, mehnat va ijtimoiy faoliyatining xarakteriga, milliy va umuminsoniy madaniyat me'yorlarini o'zlashtirish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ushbu omillarning o'zaro aloqadorligini ta'minlash mexanizmida bir qator muammolar bo'lishiga qaramasdan mustaqil fikrlovchi shaxs hamisha erkinlik va o'zini o'zi boshqarishga ehtiyoj sezadi. Inson qancha mayda-chuyda nazoratlardan, cheklashlardan xoli bo'lsa, mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish uchun shuncha real imkoniyat vujudga keladi. Xuddi shuning uchun ham mustaqil fikrlash madaniyati, o'z navbatida, mustaqil ishlash va mustaqil yashash jarayonida rivojlanib, mustahkamlanib boradi.

Bizning dunyoni, uning sir-asrorlarini tushunishimizning zaminida narsa va hodisalarning biz uchun shaxsiy aloqasi, ahamiyatliligi darajasi yotadi. Ana shunday dunyoni tushunishimiz, anglashimiz va unga ongli munosabatimizni bildirib, izhor qilishimizga aloqador bilish jarayoni psixologiyada *tafakkur, fikrlash* deb ataladi.

Tafakkur – inson ongining bilish ob'ektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shaklidir.

Shu o'rinda tadqiqotimiz ob'ekti sifatida kasbiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni tanlab olingan ekan, kasbiy tafakkur to'g'risidagi zamonaviy talqinlar bilan tanishib chiqishimiz lozim bo'ladi.

Yu.Kornilov kasbiy tafakkurni kasbiy faoliyat jarayonida kasbiy vazifalarni yechishdagi inson tafakurining namoyon bo'lishi deb hisoblasa, D.Kavtaradze amaliy kasbiy vazifalarni hal etishda iqtidor ko'nikmalarni hosil qiladigan kompetent tafakkur deb belgilaydi.

O.Tixomirov kasbiy tafakkurni kasbiy ijodiy topshiriqlarni yechishga qaratilgan turli tuman evristik usullarni o'zida mujassamlashtiradi, Yu.Kulyutkin esa ijodiy xarakterga ega tafakkurning yuksak darajadagi kasbiy rivojlanishi jarayoni deb ta'rif beradilar. M.Kashapov fikricha kasbiy tafakkur bu kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni topish, o'rganish, barataraf etishning yuqori darajadagi bilish jarayonidir. Ko'rinib turibdiki adabiyotlar tahlili natijasi "kasbiy tafakkur" tushunchasining turli xil talqin etilishi uning tuzilishi va tarkibiy qismlari bo'yicha bir xil aniq fikr mavjud emasligini ko'rsatmoqda¹.

Bizning fikrimizcha kasbiy tafakkur- bo'lajak o'qituvchining jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar mazmunini anglagan holda, unda faol ishtirok etishi hamda egallangan kasbiy tajribani qo'llash orqali, tanlangan kasbi bo'yicha mantiqiy fikrlash jarayonida pedagogik vazifalarni yechishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirishga oid shaxsiy-kasbiy fazilatlarining tarkib topishidir.

Kasbiy tafakkurni rivojlantirish inson kasbiy yetuklik jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida uning muvafaqiyatli kasbiy faoliyat olib borishiga imkon beradi. Kasbiy tafakkurni rivojlantirishda asosiy o'rinni oliy ta'lim muassasalaridagi

¹Корнилов Ю.К. О зарождении и развитии мыслительного процесса в педагогической деятельности /Ю.К. Корнилов // Психология педагогического мышления: теория и практика. – М.: ИП РАН, 1998. – С. 3-8.

ta'lim-tarbiya olish jarayoni egallab, bu jarayonda bo'lajak mutaxassisning kasbiy yetuklikka erishish yo'liga muhim poydevor qo'yiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tafakkurini maqsadli yo'naltirilgan holda rivojlantirishning ba'zi jihatlari L.Jalilova, Ye.Osipova, N.Stepanova, B.Lomov, N.Kuzminlarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

Mazkur tadqiqotchilar bo'lajak o'qituvchilar kasbiy tafakkurini rivojlantirishni tafakkurning mantiqiy madaniyatini rivojlantirish, aniq pedagogik vaziyatlarda pedagogik hamda psixologik nazariyalar, kategoriyalar, tamoyillar va qonuniyatlarni qo'llash ko'nikmalarini egallash, pedagogik intuitsiyani rivojlantirish, dialektik tafakkur asoslarini va ilmiy tafakkur metodlarini egallash, kasbiy refleksiya qobiliyatlarini egallash, talabalar bilan samarali muloqot ko'nikmalarini egallash hamda tor mutaxassisligi dorasidagi ilmiy tafakkur ko'nikmalarni hosil qilish bilan bog'liq holda o'rganganliklari diqqatga sazovordir.

Tafakkur-bu voqelikni insonning muhim aloqalari va munosobatlarga vositachiligi hamda umumlashtirilgan holda aks ettishi jarayoni hisoblanib, hissiy idrok chegaralaridan tashqariga chiqib, bilish chegaralarini kengaytirish funksiyasini bajaradi. Sezish va his qilishdan farqli o'laroq, hissiy jarayon hisoblanmaydi. U prognostik, tabiatan ijtimoiy va subektiv hisoblanadi. Uning har bir turi kasbiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishida o'ziga xos va muhim rol o'ynaydi.

Muayyan mazmundagi vazifalar va muammolarni hal qilishda turli tafakkur turlarining o'ziga xos xususiyatlari va namoyon bo'lish darajalari inson ongining xususiyatlari (chuqurlik, kenglik, moslashuvchanligi, tanqidiy mushohada, tezlik va mustaqilligi) haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi.

Aqliy fazilatlarining o'ziga xos uyg'unligi turli muammolarni hal qilishda barqaror namoyon bo'lishi orqali insonning tafakkur uslubini xarakterlaydi. Sintetik, idealistik, pragmatik, analitik, real fikrlash uslublari ajratiladi.

Shunday qilib, "kasbiy tafakkur" tushunchasi fanda umumiy qabul qilingan aniq ta'rifga ega bo'lmasdan, u yoki bu kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida mutaxassisning yetuklik darajasini belgilovchi tafakkur shakli sifatida namoyon

bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish muammosi har qaysi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Shu boisdan hozirgi davrda qabul qilinishi mo'ljallangan yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va ushbu qonun asosida qabul qilinadigan me'yoriy xujjatlarda kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslikni, balki bo'lg'usi pedagogik kadrlarda kasbiy tafakkurni tarkib toptirish mutlaqo zaruriy shart ekanligi ta'kidlanadi.

Inson tafakkurining vujudga kelishi, fanlararo tadqiqot ma'lumotlari tasdiqlaganidek, quyidagi yo'nalishlardan: aniq-ta'sirli tafakkurdan konkret-obrazli tafakkur orqali og'zaki-mantiqiy tafakkur tomon borgan. Bizning uzoq ajdodlarimiz tafakkurining vujudga kelishi to'g'risida gapirganda shuni aytib o'tmoq zarurki, u hozirgi zamon odami tafakkuridan farq qilgan va hozirda mavjud bo'lmagan arxaik shakllarda amalga oshirilgan. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, antropogenezning ilk bosqichlarida «tafakkurning protoformasi» mavjud bo'lgan va u hozirgi zamon odamining tafakkuri shakllaridan (tushunchalar, mulohazalar, xulosalardan) farq qiladi. Shakllanayotgan odamning ongi konkret-hissiy va bevosita amaliy vaziyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan. U hali yetarlicha mustaqil bo'lmagan va odamlarning moddiy faoliyati va moddiy hayoti bilan chirmashib ketgan edi. Faqat bir yarim millionyildan ortiq vaqt davomida amaliyot o'zlashtirila borgan sari amaliy harakatlar mantiqi asta-sekin fikrlar harakati mantig'iga aylanib borgan.

Atrofdagi voqelikka mos va muvofiq bo'lgan, faol, ijtimoiy muhit maqsadga yo'naltirilgan bizning uzoq o'tmishdagi ibtidoiy ajdodimizning aqlli odamga aylanishiga yordam bergan ijtimoiy sharoitlardir. Odamlarning sotsiumdagi o'zaro ta'siri, ularning birgalikdagi mehnat faoliyati jarayonidagi aloqasi ayrim individning ham, bu tun sotsiumning ham ongi paydo bo'lishi, mustahkamlanishi va rivojlanishiga yordam berdi. Odamlarning mehnat quroli tayyorlash jarayonidagi aloqalari boshqalarning fikrini tushunishga va o'zining boshqalarga tushunarli bo'lishga ehtiyoj tug'dirdi. Axborot olish, uni berish, saqlash va undan butun

sotsiumning foydalanishi ijtimoiy zaruriyatga aylanadi, shuning uchun ong va mehnat zaminida zaruriyat tufayli odamda aniq nutq, insoniy til paydo bo'ladi va rivojlanib boradi.

Xuddi shu sharoitlar hozirgi zamondagi odamning yosh bolasi uchun ham zarurdir. Agar bola vaziyat taqozosi bilan jamiyatdan tashqarida o'ssa, u aqlli mavjudotga ham, ijtimoiy mavjudotga ham aylana olmaydi. Demak, fikrlash faoliyati asosida paydo bo'lgan va shakllangan shakli bo'yicha, lekin mohiyati bo'yicha, sotsial hodisadir. Inson ongining fiziologik asosi miyadir. Lekin bu yerda miya o'z-o'zicha fikrlamasligini, balki miya yordamida odam fikrlashini tushunib olish muhimdir. Ongning paydo bo'lishida asosiy ijtimoiy rolni o'ynaydi, chunki mehnat odamni shaxs sifatida shakllantiradi, uning ijodiy potentsiali, imkoniyati va qiziqishlarini, qurshab turgan dunyoni tushunishga, uning tarkibida o'z o'rnini tanlashga, uni o'z maqsad va vazifalariga bo'ysundirishga, inson uchun foydali qilishga intilishlarini rivojlantiradi.

Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, til odamlarning ijtimoiy tajribalarini ifodalab beradi, insoniyatning tarixiy taraqqiyotida tafakkurning uzluksizligini ta'minlaydi. Inson fikri, g'oyalari, tasavvurlari so'zlarda ifodalanadi, shakllanadi, shuning uchun til - bu fikrni, ongni ifodalashning universal vositasidir, kishilarning aloqa qilish, axborot almashish vositasidir.

Til va ong birgalikda, lisoniy-mantiqiy birlikda mavjuddir, bunda til fikrlarni belgilar bilan ifodalovchi bo'lib chiqadi, ularni so'zlar bilan ifodalaydi, boshqa kishilar uchun tushunarli qiladi. Kishilik jamiyati rivojlana borgan sari til ham takomillashib boradi. Mehnat va til - ong rivojining asosiy ijtimoiy omillaridir, ammo birdan-bir omili emas. Inson hayotining, demak, tafakkurining ham ijtimoiy asosi ko'pgina boshqa komponentlarni, masalan, siyosiy, huquqiy, axloqiy, tashkiliy, gnoseologik va hokazo komponentlarni o'z ichiga oladi.

Inson ongi boshqa kishilar ongining, butun sotsium ijtimoiy ongining, ijtimoiy guruhlar (milliy, diniy, kasbiy, yosh bo'yicha va hokazo guruhlar) ongining, madaniyat, fan, mafkura, ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyaning ta'siri ostida bo'ladi va ular bilan faol o'zaro ta'sirda bo'ladi, Xuddi shular orqali odam

o'zining kundalik hayotida shaxsga, ijtimoiy mavjudotga, insoniy madaniyat sohibiga aylanadi²

Ajdodlarimiz merosida ham ustoz-shogird munosabatlari asosida murabbiylik, o'qituvchilik kasbining o'ziga xos etnopedagogik fazilatlari, xususiyatlari, xislatlari, qobiliyatlari ish uslublari mahoratga erishishning yo'llari, shaxslararo muomala madaniyati yuzasidan xalqning mentalitetiga turli ta'limotlar, qarashlar talqini o'z ifodasini topgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi» qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosini har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash masalasi tashkil qilar ekan, ajdodlarimizning 3000-yil ilgari bu a'molga yetishning yo'llari, qoidalarini ishlab chiqib, davlat va jamiyat tuzilishining negiziga asos qilib qo'yganlari tahsinga sazavordir: «-menga barkamol va dinogoh, vatansevar va anjumanaro, ahil, ezgu andishali, zulmatdan, tanglikdan qutqaruvchi farzandlar bag'ishla. Toki ular manzil, shahar, o'lka va uning nom hamda ovozasini ko'tarsinlar»[o'sha manba]

O'smirning o'z tafakkuriga tayanib, bergan javoblarga asoslangan holda uning qanday bilimlar sohasini va hunarlarni o'zlashtirganligini bilishimiz mumkin. Haqiqatdan ham balog'at yoshiga yetgan jamiyat a'zolarining deyarli barcha diniy, dunyoviy, harbiy, maishiy-ma'naviy sohalarda yetuklik va barkamollika erishishi avval boshlang'ich so'ngra yuqori ta'limning mustahkam poydevorga qo'yilganligi, bu jarayonda dars usullari, uslublarining o'ziga xosligi, muallimlarning mehnati va fidokorligi bosh omil ekanligini aytib o'tish joizdir.

Pedagogik muloqot vositasida talabalar kasbiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat o'zining didaktik hamda psixologik xususiyatlariga ega bo'lib, mazkur xususiyatlarni aniqlash orqali o'qituvchi kasbiy faoliyatini sifat jihatdan takomillashtirish imkoniyati vujudga keladi. Pedagogik muloqot vositasida talabalar kasbiy tafakkurni rivojlantirish o'qituvchining kasbiy vazifalari sirasiga kirib, bo'lajak pedagoglarni bunday jarayonga tayyorlash uchun ularni nazariy

²Falsafa.M.Axmedovningumumiytahririostida.O'zbekistonfaylasuflarmilliyjamiuatinashriyoti.T.2006.303 b
www.pedagoglar.org

jihatdan qurollantirish muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlillarimiz natijasida ayon bo'ldi. Pedagogik muloqot vositasida talabalar kasbiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash uchun bu sohada mavjud bo'lgan yondashuvlar, tushunchalar, qarashlar, ma'lumotlarni to'plash, tahlil etish asosida ishlab chiqilgan nazariy-metodik tavsiyalarni oliy pedagogik ta'lim tizimiga joriy etish maqsadida muayyan ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish zaruriyatining mavjudligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving).—Alexandria—Virginia,USA: ASCD, 2014.

2. Инновацион таълим технологиялари /Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт”нашриёти,2015.–81-б.

3. Муслимов Н.А., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/ Монография. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2013.

4. Педагогика назарияси / ОТМ учун дарслик. Муал.: М.Х.Тохтаходжаева ва Проф. М.Х.Тохтаходжаеванинг умумий тахрири остида. – Т.: “Iqtisod-moliya”, 2010. – 136-140-б.

5. Манзура Мавлоновна Зикийева /Формирование навыков логического мышления у студентов-медиков: методы и способы./ Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 2024/2/6 / 14 Том 4 /151-155стр.

6. Психологические механизмы формирования социального воображения у подростков. АА Ахмедов, ММ Зикийева. Новый день в медицине.151-154,1(29)2020

7. Madaniyatlararo tafovutlarning glaballashuv sharoitida ijtimoiy–psixologik xususiyatlar. ММ Zikiriyayeva. Таълим ва ривожланиш тахлили онлайн илмий журнали 2 (3), 240-245, 2022/5/5

8. Shaxs psixologiyasida ranglarning egallagan o'rni xususida. Тафаккур ва www.pedagoglar.org

талқин, 475-485, 2020/5/15

9. Ўсмирлар хулқ-атворида ижтимоий қадриятлар шаклланишига таъсир этувчи омилларни методологик асослари. Зиқиряева.М М, *Psixologiya* 4 (4), 124-128, 4/2020

10. О методологии психологического образования. А.А Ахмедов, М.М Зиқиряева. Вестник интегративной психологии 19 (79), 63-67, 2019/9/3

11. Психологические особенности взаимоотношений мальчиков и девочек в младших классах. *Зиқиряева М.М. (г. Бухара, Узбекистан)* Вестник 24/2022 128-130с

12. Психологические механизмы формирования социального воображения у подростков АА Ахмедов, ММ Зиқиряева. Новый день в медицине.151-154, 1(29)2020

13. Талабалар касбий тафаккурини ривожлантиришда замонавий маъруза машғулотларининг аҳамияти. Гулноз Негматовна Курбанова. Биологияи интегративная медицина. 2021

14. Психологические механизмы формирования социального воображения у подростков. А.А Ахмедов, М.М Зиқиряева. Тиббиётда янги кун. 151-154 стр, 1(29)2020

15. Ўсмирлар хулқ-атворида ижтимоий қадриятлар шаклланишига таъсир этувчи омилларни методологик асослари. М.М Зиқиряева, *Psixologiya* 4 (4), 124-128, 4/2020

16. О методологии психологического образования. А.А Ахмедов, М.М Зиқиряева. Вестник интегративной психологии 19 (79), 63-67, 2019/9/3

17. Психологические особенности взаимоотношений мальчиков и девочек в младших классах. *Зиқиряева М.М. (г. Бухара, Узбекистан)* Вестник 24/2022 128-130с

18. Psychology in teaching english language. “Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture”. Zikiryayeva Manzura Mavlonovna, Hakimova Muhabbat Alimovna, Volume 2 Issue 5, May 2022. ISSN 2181-2888. 228-232 p.

19. Тиббиёт олий таълим муассасалари талабаларини мантикий
www.pedagoglar.org

тафаккурини ривожлантиришнинг психологик механизмлари. *Зикиряева М.М.* Journal of new century innovations. 2022.11.07,16(3), 33–39 p.

20. Олий таълим муассасалари талабаларида креативликни шакллантириш. *Зикиряева М.М.* Eurasian journal of academic research. 2022.10.19. 926-931 p.

21. Психологические механизмы формирования социального воображения у подростков. А.А Ахмедов, М.М Зикиряева. Тиббиётда янги кун. 151-154 стр, 1(29)2020

22. SHaxs psixologiyasida ranglarning egallagan o'rni xususida. М.М Zikiryaeva. Тафаккур ва талқин, 475-485, 2020/5/15

23. Ўсмирлар хулқ-атворида ижтимоий қадриятлар шаклланишига таъсир этувчи омилларни методологик асослари. М.М Зикиряева, Psixologiya 4 (4), 124-128, 4/2020

24. О методологии психологического образования. А.А Ахмедов, М.М Зикиряева. Вестник интегративной психологии 19 (79), 63-67, 2019/9/3

25. Психологические особенности взаимоотношений мальчиков и девочек в младших классах. *Зикиряева М.М. (г. Бухара, Узбекистан)* Вестник 24/2022 128-130с

26. Бошланғич синф ўқитувчисининг ўзига хос психологик хусусиятлари. “Journal of new century innovations” international interdisciplinary research journal. 05.05.2022. 244-249 б.

27. Psychology in teaching english language. “Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture”. Zikiryaeva Manzura Mavlonovna, Hakimova Muhabbat Alimovna, Volume 2 Issue 5, May 2022. ISSN 2181-2888. 228-232 p.

28. Тиббиёт олий таълим муассасалари талабаларини мантикий тафаккурини ривожлантиришнинг психологик механизмлари. *Зикиряева М.М.* Journal of new century innovations. 2022.11.07,16(3), 33–39 p.

29. Олий таълим муассасалари талабаларида креативликни шакллантириш. *Зикиряева М.М.* Eurasian journal of academic research. 2022.10.19. 926-931 p.

30. Psychology in teaching english language. “Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture”. Zikirayeva Manzura Mavlonovna, Hakimova Muhabbat Alimovna, Volume 2 Issue 5, May 2022. ISSN 2181-2888. 228-232 p.

31. Zikirayeva Manzura Mavlonovna. Pedagogical aspects of the development of logical thinking of future doctors // central asian journal of education and innovation. - 17-June 2023 yil. - №Volume 2, Issue 6, Part 4 June2023. - C. 148-153.